

“LAYLI VA MAJNUN” TURKUMIDAGI ASARLARNING ARAB, FORS, TURKIY TILLARDA YARATILISH TARIXIGA DOIR

Dilorom Salohiy,

filologiya fanlari doktori, professor

Samarqand davlat Chet tillar instituti

Annotatsiya. *Alisher Navoiyning sharq epik poeziyasini yangilashdagi badiiy-estetik va g‘oyaviy tamoyillari xamsachilikda arab va forsiy tilli xalqlar og‘zaki va yozma manbalari istifodasiga borib taqaladi. Mutafakkir o‘z asarlarida bevosita o‘zigacha yetib kelgan arab va fors tillaridagi xalq og‘zaki ijodiga va folkloriga ham murojaat etadi. Shayx Nizomiy o‘z adabiy muhitida birinchi dostonnavis sifatida, Alisher Navoiy esa temuriylar tamadduni davrining ijtimoiy faol ijodkori sifatida beshliklaridagi xalqona, sodda va donishmandona tafakkur ifodasiga, xalq folklorining o‘lmas an‘analariga katta ahamiyat berdilar. Nizomiy “Layli va Majnun” dostonida ijtimoiy foydali ma‘rifiy fikrlarini pand-nasihatchilik tarzida emas, balki xalq og‘zaki ijodi va folkloridan olingan badiiy timsollar vositasida ifoda etdi.*

Alisher Navoiy “Xamsa”sida esa “sayyor syujetlar” - xalqona hikoyat va rivoyatlarga asoslangan epizodlar ma‘rifiy mazmundagi hikmatlar bilan boyitiladi, orifona ma‘no kasb etadi. Ayniqsa, buyuk “nazirai benazir”ning uchinchi dostoni bo‘lmish “Layli va Majnun”da shoir xamsanavislikda o‘zigacha mavjud an‘analardan ijodiy foydalangan holda o‘z dostoniga yangicha ruh bag‘ishlaydi, o‘z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, “afsonaga yangi libos kiygizadi”.

Tayanch iboralar: *epik poeziya, uslub, romantizm, hayotiylik, xalqchilik, ma‘rifiy mazmun.*

Аннотация. *Художественно-эстетические и идейные принципы эпического творчества Алишера Навои способствовали возобновлению многовековых традиций восточной поэзии. В своих пятерицах гениальные мыслители Востока использовали фрагменты из источников устного народного творчества и фольклора арабских и персидских народов в своеобразном творческом стиле. Низами Гянджеви как первый мастер эпического стиля в своей литературной среде, Алишер Навои как видный творческий и государственный деятель эпохи тимуридского ренессанса в своих творениях обращались к мудрому народному мышлению, немеркнувшим традициям фольклора. Шейх Низами в своей поэме «Лейли и Меджнун» обращался непосредственно к фольклору или созданиям устного народного творчества для выражения своих социально полезных мыслей. Свою идейную замысль он чаще выражал не наставлениями, а живыми эпизодами и образами из народного творчества.*

В третьей поэме “Хамсы” Алишера Навои занимают важное место мистические идеи, где эпизоды из устного народного творчества и притчи, отрывки с образами животных, элементов из флоры и фауны обогащаются духовным содержанием. Великий мыслитель в поэме «Лейли и Меджнун», творчески используя художественные традиции своих наставников, придаёт новый романтико-реалистический дух.

Ключевые слова: *эпическая поэзия, стиль, романтизм, реальность, народность, духовно-нравственное содержание.*

“Layli va Majnun” - jahon adabiyotidagi eng mungli va alamli sevgi qissalaridan biridir. U Sharq o‘lkalarida shu darajada keng tarqalgan va shuhrat qozonganki, shu jihatdan qaraganda hatto G‘arb adabiyotining eng ajoyib yodgorliklaridan bo‘lgan “Romeo va Juletta” ham u bilan tenglasha olmaydi, degan edi sharqshunos olim I.Yu.Krachkovskiy. [6;18]

“Layli va Majnun” qissalari uzoq tarix va tadrijiy takomilga ega. U qadimiy arab qabilalarida vujudga keldi, so'ng Eron, O'rta Osiyo, Kavkaz, Hindiston va boshqa o'lkalarga tarqaldi. Xalq og'zaki ijodida yuzaga kelgan bu sayyor syujet keyinchalik yozma adabiyotdan keng o'rin oldi, qayta-qayta ishlandi. Shayx Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy kabi buyuk so'z san'atkorlarining qalami bilan yanada kengroq shuhrat qozonib, jahon adabiyotining o'lmas obidalaridan biri bo'lib qoldi.

Akademik I.Yu.Krachkovskiy ko'rsatganidek, Layli va Majnun haqidagi rivoyatlar VII asrning oxirlarida paydo bo'la boshladi. Og'zaki ravishda paydo bo'lgan bu rivoyatlar keyinchalik yozma asarlarga ham kiradi. Biroq hali ular kompozitsion tarqoq, o'zaro uzviy bog'lanmagan rivoyatlar edi. Ular mukammallashgan badiiy asar turiga kirmagan edi. [2;64]

Layli va Majnun haqidagi rivoyatlarni hikoya qiluvchi eng eski manbalardan biri Ibn Qutayba (889 yilda vafot etgan) ning “Kitobush-she'r va shuaro” asaridir. Shu manbaga ko'ra, Majnunning asl nomi Qays ibn Muod (boshqa variantga ko'ra Qays ibn Mulavvah) bo'lib, u Bani Ja'd qabilasidan kelib chiqqan ekan. Qays o'z qabilasidan Layli degan qiz bilan tuya boqar ekan. Bu ikki yosh bir-birini qattiq sevib qolibti. Biroq qarshiliklar tufayli uzoq vaqt sevgilisiga erisholmagan Qays telbalanib, kishilardan yotsirab, sahroga chiqib, hayvonlar bilan do'stlashibti.

Novfal ibn Musahhiq degan kishi Qays voqealarini eshitib, uni izlab ketadi. U Qaysni topib kiyintiradi, u bilan suhbatlashmoqchi bo'ladi. Biroq bundan hech qanday foyda bo'lmaydi. Novfal Layli haqida so'z ochadi, shundagina Qays es-hushiga keladi. Novfal Qaysga yordam berib, uni murod maqsadiga etkazmoqchi bo'ladi. U Layli qabilasiga qizga sovchi bo'lib boradi, biroq uning otasidan rad javobini oladi. Majnunning otasi Laylining otasini ko'ndirishga urinadi. Bu ham foyda bermaydi. Shundan so'ng Majnunning otasi bolaning ishq ehtirosi sovsin, deb Makka ziyoratiga olib boradi. Bu ham kor qilmaydi. Shu orada Laylini boshqa bir kishiga beradilar. Buni eshitgan Qays tamomila es-hushidan og'ib qoladi. U yana sahroga chiqib ketib, vahshiy hayvonlar bilan birga yashaydi. Telbaligiga qaramay, Qays Layli haqida chiroyli qo'shiqlar to'qiydi, hatto bir yigit bu qo'shiqlarni yozib ham oladi. U Qays uchun ma'lum bir joyga ovqat olib kelib qo'yar, Qays ochiqqanida kelib, ovqatdan eb ketar edi. Nihoyat Qays o'sha joyga kelmay qo'yipti. Uchinchi kuni kishilar uni izlay boshlaptilar va toshloqda uning murdasini topibtilar.

Shunga yaqin rivoyat Abul Faroj al-Isfahoniy (897-967) tomonidan ham hikoya qilinadi. Abul Faroj shu mavzudagi og'zaki va yozma manbalarni sharhlaydi, bir necha yangi hikoyatlar ham keltiradi. Shunday hikoyatlardan birida aytilishicha, Majnun uchun Laylidan ko'ra go'zalroq hech kim va hech narsa yo'q ekan. Biroq keyinchalik tog' hayvonlaridan bo'lmish kiyik unga Layli go'zalligini eslatuvchi bir

ramz bo'lib qolipti. Kunlardan bir kun bir bo'ring bir kiyikka tashlanib, uni yorganini ko'rgan Majnun qattiq g'azablanibti va u ham jon-jahdi bilan tashlanib, bo'rini o'ldiribti. Yana bir kuni Majnun ikki ovchining bir kiyikni tutib ketayotganlarini ko'ribti. U ovchilarga yalinib-yolvorib, ularga qo'y berib, kiyikni ozod etipti.

Abul Faroj Majnun shaxsiyati haqida ham ma'lumotlar beradi. Ayrim manbalarga ko'ra bir emas, bir nechta Majnun o'tgan bo'lsa, boshqa manbalarga ko'ra aslida Majnun degan kishi o'tmagan. Umaviylar sulolasidan chiqqan bir yigit o'z qarindoshlaridan birini sevib qoladi va unga atab she'rlar yozadi. Ammo sevgi ehtiroslarining oshkor bo'lganidan xijolat chekib, Majnun haqidagi rivoyatni o'ylab chiqaradi. Boshqa manbalarda ham shunday rivoyatlar bor.

Majnun tarixiy shaxsmi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'ninchi asrning oxirlarida arab adabiyotida Majnun nomiga nisbat berilgan she'rlar va turli rivoyatlar paydo bo'la boshlaganini ko'ramiz. XI asrda Abu Bakr al-Volibiy degan kishi Majnun nomiga nisbat berilgan she'rlarni devon qilib tuzadi, ularga sharhlar yozadi va she'rlarni Majnun haqidagi rivoyatlar syujetiga kiritadi. Bu asar Majnun haqidagi bir qissa tusini oladi. Abu Bakr al-Volibiy qissasida avvalgi rivoyatlarning mazmuni deyarli saqlanib qolgan. Unda faqat ayrim kichik o'zgarish va yangi epizodlar bor. Masalan, qadimgi rivoyatlarda Layli va Majnun tuya boqib yurganlarida bir-birlarini sevib qolishsa, bu qissada qo'shimcha ravishda Majnun qadimgi rivoyatlarni hikoya qilib berish bilan Laylini o'ziga maftun etadi, deyiladi. Qiz va yigitning sevishganini eshitgan Laylining otasi Sultonga shikoyat qiladi, shundan so'ng Sulton Majnunni qattiq ta'qib etadi. Majnun ham bu qissada birmuncha boshqacharoq tarzda bayon qilinadi. Majnun ikki suvoriydan Laylining o'lganini eshitadi, ulardan Laylining qabriga olib borishni iltimos qiladi. Qabr boshiga borgach, o'zini uning ustiga tashlaydi, shu bo'yi uzoq yotib qoladi va jon taslim qiladi. Qissada boshqa yangiliklar ham bor.

Majnun she'rlari, Layli va Majnun rivoyatlari va ayniqsa, Abu Bakr al-Volibiy tuzgan devon-qissa Sharq o'lkalarida keng tarqalgan va shuhrat qozongan edi. XII asrda Kichik Osiydan – Ganja shahridan chiqqan yirik mutafakkir alloma Shayx Nizomiy Ganjaviy o'z ijodida qadimgi rivoyatlar bilan kifoyalanib qolmadi. U Layli va Majnunlarning fojiali sarguzashtini o'zi yashagan muhit aspektida qaytadan ishlab chiqti, qissani g'oyaviy-badiiy yuksak va mukammal bir doston darajasiga ko'tardi.

Nizomiy dostoni Sharq xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozondi va oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o'tgach, hindistonlik mashhur shoir Amir Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi. Dehlaviy dostoni 1299 yilda yaratilgan bo'lib, "Majnun va Layli" deb ataladi. Muallif doston qahramonlari nomini almashtirish bilan yangilikka, o'z salafidan o'zgachalikka intilganligini ta'kidlaydi hamda ushbu qissaning arab

xalqlari orasida dastavval “Majnun va Layli” shaklida ommalashganligiga e’tibor qaratadi. U Nizomiy dostonining kompozitsion tuzilishini asosan saqlab qolgani holda, uning syujetiga ba’zi o’zgartirishlar kiritadi. Xusrav Dehlaviy ushbu dostoni bilan Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusidagi dostonga javob yozish an’anasini boshlab berdi. Dehlaviydan keyin forsiy adabiyotda, xususan, Hirot adabiy muhitida Ashraf Marog’iy, Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy, Shayxim Suhayliy, Abdulloh Xotifiy, Badriddin Hiloliy, Xoja Imod Loriy va boshqalar ham ushbu mavzuda asar yozgan.

Buyuk o’zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni turkiy tilda ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo’lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog’iy va Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o’rganadi. U xamsanavislikda o’zigacha mavjud an’analardan ijodiy foydalangan holda o’z dostoniga yangicha ruh bag’ishlaydi, o’z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, “afsonaga yangi libos kiygizadi”.

Alisher Navoiy bu dostonda o’z ideallarining fojiga uchrashi sabablarini ochib beradi. Dostonda, go’yoki, boshdan oxirgacha shoirning hazin yig’isi eshitiladi:

*Bir na’shqqa soldilar ikovni,
Jonsiz kelinu o’luk kuyovni...
So’ngin nechakim uzattim oxir,
Yig’lay-yig’lay tugattim oxir.*

Doston voqealari “Layli va Majnun” sarguzashti boshlanmasdan oldin “Ul tun muhabbati ta’rifida...” deb nomlangan bob bilan boshlanadi. Layli va Majnun qissasi nihoyasiga yetgach esa, “Ishq ta’rifidakim” sarlavhasi bilan bir bob keltiriladi. “Bu bob diqqat bilan o’qilganda, shu narsa ayon bo’ladiki, - deb yozadi B. Valixo’jayev, - unda Alisher Navoiy biz javobini topishga intilgan savollarga ham javob beradi, doston va uning timsollarini tahlil qilish bo’yicha asosiy yo’nalishlarni ham bayon etadi”. [3;44]

Alisher Navoiy har bir dostonini boshlar ekan, dostonning vaznini ham uning mavzuiga bog’lab tanlaydi, asar boshlanishidagi voqea tasviri bilan ham o’quvchini tayyorlaydi. Shoir o’zining ideallariga hamisha umid bilan qaraydi, ularning mag’lubiyatga uchrashini istamaydi.

Majnunning Layliga bo’lgan muhabbatini tarannum etar ekan, shoir bu ishqning avvalo oddiy insinga – Yer go’zaliga nisbatan bo’lgan majoziydan Mutlaq Go’zallik - Alloh taologa nisbatan bo’lgan haqiqiy ishq darajasiga ko’tarilishini yoritib beradi:

*Bu ishqki, baxti komrondin,
Xoli bo’lmay zamone ondin.*

*Garchi iki nav' o'tti rozi,
Avvalg'ini anglag'il majoziy.
Kim durru gudozu so'z birla,
Yuz sho'layi jonfiro'z birla,
Majnung'a biri bo'lub musallam,
Bahra topti ikinchisidin ham.*

Alisher Navoiy nazdida Majnun insoniy, avom ishqi – majoziy ishqda kamolotga erishib, haqiqiy ishq maqomiga yetgan orif insonlar timsolidir.

Layli esa Majnun uchun Buyuk Yaratuvchi kamolotini o'zida namoyon etgan ko'zguadir. Shu bois Majnun jismoniy xilqat bo'lmish Laylini – ko'zguni emas, balki ko'zgu ichidagi mohiyatni sevadi.

Akademik B. Valixo'jayev “Layli va Majnun” dostonining xususiy g'oyaviy-badiiy jihatlari haqida fikr yuritar ekan, jumladan shunday deydi: “Agar diqqat bilan qaralsa, bu ikki dostonni (“Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” – B.V.) bir-biriga yaqinlashtiruvchi mushtarak mavzu – komil inson mavzusidir. Bu mavzu ularni bir-biriga bog'labgina qolmaydi, balki mavzuning har bir dostonida o'ziga xos tarzda yoritilishi ularning uslubiy o'ziga xosliklarini namoyon etadi, ya'ni “Farhod va Shirin”da bu mavzu ijtimoiy faollik ko'lamida yoritilsa, “Layli va Majnun”da esa asosan ishq maydonidagi ichki kechinmalar, ruhiy holatlarning chuqur tasviri orqali nihoyatda mahorat bilan tasvirlanadi”. [3;49]

“Layli va Majnun” dostoni inson muhabbati ifodasining eng ajoyib namunasi bo'lib, Alisher Navoiy badiiy mahoratining yangi qirralarini o'zida namoyish etadi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT, 20 tomlik, 9-t. – Toshkent: “Fan”, 1992.
2. Bertels Y.E. Izbrannye trudi. «Navai i Djami». – M., Nauka, 1965. S.164.
3. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-qism. – Samarqand: 2002.
4. Natan Mallaev. Nizomiy Ganjaviy merosi va uning ma'rifiy tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: “O'QITUVChI”, 1985.
5. Dilnavoz Yusupova. O'zbek mumtoz va milliy o'yg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). – Toshkent: “TAMADDUN”, 2016.
6. Mamatqulova X.A. Navoiyning “Layli va Majnun”, Shekspirning “Romeo va Juletta” asarlarining qiyosiy tadqiqi. – NDA, Samarqand, 2009.